Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH: MAKTAB, KUTUBXONA VA OILA HAMKORLIGINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Ahmadjonova Nilufaroy

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20399064

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muammosi ko‘rib chiqiladi. Maktab, kutubxona va oila hamkorligi asosida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil etiladi. O‘zbekiston Respublikasida kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari va me‘yor-huquqiy hujjatlar o‘rganiladi. Ilmiy manbalar asosida oila muhiti, maktab ta’limi va kutubxona xizmatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan. Pedagogik amaliyotda sinab ko‘rilgan samarali shakllar, metodlar va vositalar tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: kitobxonlik madaniyati, maktab kutubxonasi, oila hamkorligi, pedagogik imkoniyatlar, o‘quvchi shaxsi, maʻnaviy tarbiya, adabiy o‘yin, kitobxonlik ko‘nikmasi.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема формирования культуры чтения у учащихся. Анализируются педагогические возможности развития навыков чтения на основе сотрудничества школы, библиотеки и семьи. Изучаются государственные программы и нормативно-правовые акты, направленные на повышение культуры чтения в Республике Узбекистан. На основе научных источников определяется взаимосвязь между семейной средой, школьным образованием и библиотечными услугами. Рекомендуются эффективные формы, методы и инструменты, апробированные в педагогической практике.

Ключевые слова: культура чтения, школьная библиотека, семейное сотрудничество, педагогические возможности, личность ученика, духовное воспитание, литературная игра, навыки чтения.

KIRISH

Kitob insoniyat sivilizatsiyasi tarixi davomida bilim, madaniyat va maʻnaviyatning asosiy manbai bo‘lib kelgan. Aristotel “Kitoblar – insonning ko‘rinmas do‘stlari” deb taʻriflagan bo‘lsa, Konfutsiy “O‘qish va fikr yuritmaslik – bekorchi mehnat; fikr yuritish va o‘qimaslik esa xavfli” degan hikmati bilan kitob va aql-idrokning uzviy bog‘liqligini taʻkidlagan.

Bugungi axborot texnologiyalari asrida yoshlar e‘tiborini kitobga jalb etish tobora murakkab vazifaga aylanib bormoqda. Jahon maʻmuriyat tashkiloti UNESCO ning 2021-yilgi maʻruzasiga ko‘ra, dunyo bo‘ylab o‘smirlarda kitob o‘qishga ajratiladigan vaqt so‘nggi o‘n yil ichida 43 foizga kamaygan, ekran vaqti esa ikki barobarga oshgan (UNESCO, 2021). O‘zbekistonda ham o‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlik faolligini oshirish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 14- yanvardagi ma’ruzasida taʻkidlaganidek: “Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lan masala, yaʻni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lan muhabbatini, ularning maʻnaviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi” [1] turganligini alohida eʻtirof etganlar.

Ushbu maqola maktab, kutubxona va oila hamkorligida o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayonining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA MUAMMONING ILMIY ASOSLARI

Kitobxonlik muammosi jahon pedagogik fanida keng o‘rganilgan. Rus pedagogi K.D.Ushinskiy bolalarda kitobga muhabbat uyg‘otishning asosi oilaviy muhit va boshlang‘ich ta’im ekanligini uqtirgan: “Kitob – inson tafakkurining eng buyuk mo‘jizasi; u bilimni avloddan avlodga yetkazadi” [2]. Mazkur g‘oya bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.

Amerikalik mutaxassis Jim Trelease ovoz chiqarib o‘qishning bolalar leksikasini boyitishdagi hal qiluvchi rolini empirik tadqiqotlar asosida isbotlab berdi[3]. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, ota-onalar bolalariga kuniga 20 daqiqa ovoz chiqarib kitob o‘qiganida, bola bir yil ichida 1 million yangi so‘zga duch keladi.

Finlyandiyalik tadqiqotchi Pirjo Linnakylä PISA tadqiqotlari doirasida olib borgan ishlarida kitobxonlik lazzati va o‘qish samaradorligi o‘rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjudligini aniqladi [4]. Ushbu topilma maktab kutubxonalari va oila muhitida kitobga qiziqish uyg‘otishning ahamiyatini yanada oshiradi.

Rossiyalik pedagog N.N.Svetlovskaya kitobxonlik madaniyatini “o‘quvchining kitob bilan madaniy muloqot qilish malakasi sifatida: tegishli manba tanlay bilishi, munosib baholashi va olingan axborotni hayotiy faoliyatida qo‘llay olishi” deb taʻriflaydi [5]. O‘zbekistonda bu masala Z.X. G‘aniyeva, A.O. Sobirov, D.R.Toshmatova kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Z.X. G‘aniyeva tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, maktab va kutubxona hamkorligida olib borilgan tadbirlar natijasida o‘quvchilarning kitobxonlik faolligi 34 foizga oshgan [6].

ASOSIY NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zbek xalqi azaldan kitobxon xalq hisoblangan. Tarix sahifalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, buyuk allomalarimiz – al-Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Navoiy – o‘z davrlarining yetuk kitobxonlari bo‘lib, ulkan shaxsiy kutubxonalarga ega bo‘lganlar. Ibn Sino 10 yoshida Qur‘on va ko‘plab falsafiy asarlarni yoddan bilgan. Uning shaxsiy kutubxonasida 400 dan ziyod qo‘lyozma saqlanganligini manbalar qayd etadi.

O‘rta asrlarda Movarounnahr va Xuroson madrasalarida kitob mutolaasi ilmiy faoliyatning asosiy shakli bo‘lib, toliblar nafaqat diniy, balki falsafiy, tibbiy va matematik asarlarni ham muntazam o‘rganganlar. Mashhur Samarqand, Buxoro va Xiva madrasalarining dasturiy o‘quv rejasida Aristotel, Forobiy va Ibn Sinoning asarlarini qo‘lyozma nusxalardan o‘qib-o‘rganish majburiy talabga aylangan edi. Bu esa kitob madaniyatini institutsional tus olishining dastlabki shakli sifatida baholanishi mumkin. Oilalarda esa kitobxonlik tarbiyasi ontogenetik jihatdan juda erta boshlanardi: farzandlarga birinchi bo‘g‘inlar o‘rgatilishi bilan birga ularga kitob sovg‘a qilish anʻanasi keng tarqalgan bo‘lib, bu hol kitobni moddiy qadriyat sifatida emas, balki maʻnaviy ulug‘lik ramzi sifatida idrok etishga o‘rgatgan. Stanovich tadqiqotlari bolaning ilk yoshidagi kitob bilan munosabati uning keyingi kognitiv rivojlanishini, jumladan, so‘z boyligi va mantiqiy fikrlash qobiliyatini kuchli prediksiya qilishini isbotlagan [10].

O‘zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan qator muhim hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Prezident Qarori kitob sohasida muhim islohotlar uchun poydevor yaratdi. Mazkur qarorda ta’lim muassasalarida sinfdan tashqari o‘qish uchun tavsiya etilgan asarlar ro‘yxatini yangilash, mutolaaga asoslangan insho yozish tizimini joriy etish kabi aniq vazifalar belgilangan.

2017–2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasining “Ta’im va fan sohasini rivojlantirish” yo‘nalishi ham uzluksiz ta’im tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni maqsad qilgan. Ushbu hujjatlar kitobxonlik madaniyatini tizimli rivojlantirishning davlat ahamiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Kitobxonlik madaniyatini davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlashning yangi bosqichi 2026-yil 24-fevralda Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvida e’lon qilingan tashabbuslari bilan belgilandi. Mazkur uchrashuvda yoshlarni rag‘batlantirish, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash hamda kitobxonlikni ommalashtirish masalalari keng muhokama etildi. Uchrashuvda e’lon qilingan muhim tashabbuslarga ko‘ra, “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish” jamg‘armasi orqali eng iste‘dodli yozuvchilarga ijodiy buyurtma berib, bir yil davomida oyiga 20 million so‘mdan haq to‘lash rejalashtirilmoqda. Bundan tashqari, eng sara xorijiy adabiyotlarni o‘zbek tiliga hamda milliy adabiyotni xorijiy tillarga tarjima qilish va chop etish xarajatining yarmi davlat tomonidan qoplanishi belgilandi. Bu chora-tadbir nafaqat mahalliy adabiyotni rivojlantirishga, balki dunyo adabiyoti namunalarini keng ommaga yetkazishga ham xizmat qiladi.

Yangi o‘quv yiliga qadar eng yaxshi 100 ta asardan iborat to‘plamni tayyorlab, barcha maktab va texnikumlarga yetkazish, eng faol kitobxon o‘quvchilarni 10 million so‘mdan mukofotlash vazifasi qo‘yildi. Mazkur tashabbus maktab o‘quvchilarida kitob mutolaasiga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi hamda kitobxonlik faoliyatini raqobatbardosh va nufuzli faoliyatga aylantiradi. Ushbu tashabbuslar majmui shuni ko‘rsatadiki, davlat kitobxonlik madaniyatini faqat ta’lim masalasi sifatida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida ko‘rib chiqmoqda.

Maktab va kutubxona hamkorligining eng samarali shakllari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: kitoblar ko‘rgazmasi (yangi nashrlarni namoyish etish); adabiy o‘yinlar (“Bu fikr kimniki?”, “Bilamizmi?”, “Bu qayerdan olingan?” kabi); kitobxonlar konferensiyasi (asarni chuqur muhokama qilish); viktorinalar va intellektual musobaqalar; asarlar qahramonlarini sahnada ijro etish; ovoz chiqarib o‘qish mashg‘ulotlari.

Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi dars jarayonida yangi asardan qiziqarli parchani o‘qib berib, “Voqeaning davomi nima bo‘lar ekan?” deb o‘quvchini kuzatishga undasa, bu usul kitobga bo‘lgan tabiiy qiziqishni uyg‘otishning eng ta‘sirli yo‘llaridan biri hisoblanadi.

Adabiy o‘yinlarga tayyorlanish jarayonida o‘quvchilar mustaqil ravishda boshqa kitoblardan ma‘lumot qidirib topadilar, lug‘atlardan foydalanadilar va savol tuzishni o‘rganadilar. Bu esa ularning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Oila muhiti bolada kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning birlamchi va eng ta‘sirli omili hisoblanadi. Amerikalik tadqiqotchi Keith Stanovich ko‘p o‘quvchilar yanada ko‘proq o‘qiydi, kam o‘quvchilar esa kamroq o‘qiydi, bu esa vaqt o‘tishi bilan tengsizlikni kuchaytirishga sabab bo‘lishi haqida ta’kidlagan [7]. Demak, oiladagi dastlabki kitobxonlik tajribasi bolaning butun hayot davomidagi o‘qish malakasini belgilab qo‘yadi.

Bu muammoni hal etishda “Yilning eng kitobxon oilasi” tadbirini yil oxirida an‘anaga aylantirish samarali chora bo‘la oladi. Tadbirda o‘quvchilarga va ota-onalarga bir qator savollar beriladi: eng yoqtirgan asari qaysi; yil davomida nechta asar o‘qiganlar; uy kutubxonalarida nechta kitob mavjud; oxirgi o‘qilgan asar qaysi va h.k. O‘quvchi va ota-onaning javoblari mos kelib, eng to‘liq bo‘lgan oila “Yilning eng kitobxon oilasi” nomiga sazovor bo‘ladi. Bunday yondashuv oilaviy kitobxonlik madaniyatini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tizimli va hamkorlikdagi pedagogik ish natijasida o‘quvchilarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi: kitobga muhabbat va kutubxonadan foydalanish madaniyati shakllanadi; tafakkur va tahliliy

qobiliyat oʻsadi; ogʻzaki va yozma nutq boyiydi; mustaqil bilim olish koʻnikmasi rivojlanadi; asar qahramonlariga taqlid qilish orqali ijobiy axloqiy sifatlar shakllanadi; oʻz uy kutubxonasini tuzish istagi paydo boʻla; adabiyotga va turli fanlarga qiziqish ortadi.

Xuddi shu yoʻnalishda Guthrie va Wigfield taʿkidlaganidek, motivatsion va kognitiv omillar oʻzaro taʿsirda boʻlganda oʻquvchilarda chuqur oʻqish strategiyalari shakllanadi [8]. Bu esa yuzaki oʻqishdan mazmunan oʻzlashtiruvchi oʻqishga oʻtishni taʿminlaydi.

XULOSA

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish – bu bir martalik taʿsir emas, balki uzoq muddatli, tizimli va koʻp yoʻnalishdagi pedagogik jarayon. Maktab, kutubxona va oila hamkorligidagina bu jarayon toʻlaqonli amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Buning natijasida:

- har bir maktabda kutubxonachi, sinf rahbari va fan oʻqituvchisi oʻrtasida kitobxonlik boʻyicha tizimli hamkorlik yoʻlga qoʻyilshiga;

- ota-onalarni kitobxonlik jarayoniga jalb etuvchi tadbirlar (jumladan, “Yilning eng kitobxon oilasi”) anʿanaga aylanishiga;

- oʻqituvchilar dars jarayonida badiiy adabiyotdan qiziqarli parchalar oʻqib berish usulini muntazam qoʻllanishiga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, kitobxon yoshlarni tarbiyalash – bu nafaqat ta’im muassasasining, balki oila va jamiyatning ham umumiy vazifasidir. Kitobxon inson – maʿnaviy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlovchi va ijodkor shaxsdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻLishi kerak / Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maʿruza, 2017-yil 14-yanvar. – T.: “Oʻzbekiston”, 2017. – 47-b.
2. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. Опйт педагогической антропологии. –СПб.: Издание Лихачева, 1867. –Т. 1. –S. 24–31.
3. Trelease J. The Read-Aloud Handbook. 6th ed. –New York: Penguin Books, 2006. –P. 12–25.
4. Светловская Н.Н. Методика обучения чтению: что это такое? // Началная школа. –2010. –№ 2. –S. 9–14.
5. Gʻaniyeva Z.X. Maktab kutubxonasi va oʻqituvchi hamkorligi asosida oʻquvchilar kitobxonlik faolligini oshirish: pedagogik tajriba // Ta’im va tarbiya. –2018. –№ 4. –B. 44–51.
6. Умарова Я.Т. Самарали ҳамкорлик – китобхонлик маданиятини шакллантириш кафолати сифатида Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 3 | 2022 ISSN: 2181-1385, 410-416.
7. Умарова Я. Т. Место анализа текста в развитии творческого мышления //Педагогические науки. – 2011. – №. 6. – С. 135-137.
8. Stanovich K.E. Matthew Effects in Reading: Some Consequences of Individual Differences in the Acquisition of Literacy // Reading Research Quarterly. –1986. –Vol. 21, № 4. – P. 360–407.

9. Guthrie J.T., Wigfield A. Engagement and Motivation in Reading // Handbook of Reading Research. Vol. III / Ed. by M.L. Kamil et al. –Mahwah, NJ: Erlbaum, 2000. –P. 403–422.
10. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2021: Non-state Actors in Education. –Paris: UNESCO Publishing, 2021. – P. 112–119.